


JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Respublika Ilmiy-amaliy anjumani

2026-yil 4-5 fevral

Toshkent 2026-yil

Yakuniy diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida burch hissining darajasi sezilarli darajada oshgan. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi. Natijalar sport faoliyati jarayonida maqsadli pedagogik-psixologik ta’sirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sport mashg‘ulotlari jarayonida maqsadli pedagogik-psixologik yondashuvlar talabalarda burch hissini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Jamoaviy sport, fair play, raqobat va o‘zini boshqarish mashqlari talabalarda intizom, mas’uliyat, adolat va o‘z vazifasini bajarish orqali burch hissini kuchaytiradi.

Ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik model burch hissini sport kontekstida rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar sport pedagogikasi va oliy ta’lim amaliyotida talabalarda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning ilmiy va amaliy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

MUSTAQIL TA’LIM TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Bayjonov Furqat Baxramovich
Oriental universiteti, dotsenti
G‘ofurov Shaxzodbek Otabek o‘g‘li
“Pedagogika” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
shaxzodg350@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqa sohalar qatori ta’limda ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish muhokama qilinadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda va barcha sohalarda intellektual salohiyatni oshirishda

muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda hayotni internet kabi axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida ta’lim tizimini isloh qilish, birinchi navbatda, ta’lim va tarbiya tizimiga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya mikroelektronika, pedagogik texnologiyalar, texnologiyalar, internet, elektron pochta, elektron kutubxonalar.

KIRISH

Ma’lumkiy bu davrda ta’limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, mana shu sababli barchamiz “Yangi pedagogik texnologiyalar” atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta’limning imkoniyatlarini butunlay o‘zgartirib yubordi. Internet leptoplar ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O‘zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta’lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta’lim va tarbiya tizimiga ilg‘or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog‘liq.

Hozirda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta’minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo‘tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog‘liq. Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikasiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni birbiriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi.

Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o‘zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta’lim tizimi uchun bu o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o‘ziga xosligi insoniyat rivojlanishi

nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat.

Shu kabi axborot kommunikasiya texnologiyalari uch yo‘nalishda ilgari bo‘lmaganjuda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to‘siqlarni yengib o‘tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo‘lidagi to‘siqlarni yengish.

Axborotlardan foydalanish natijasida ta’lim olish yo‘lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta’lim kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to‘plash jarayonining mazmunli jihatini ta’minlash uchun kerak bo‘ladi. Internet va “Butun jahon tarmog‘i” barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo‘lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘qotadi.

Internet tarmog‘i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko‘plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta’lim tizimida qayta aloqani ta’minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘qotadi.

XXI asr - axborot texnologiyalari asri. Bugungi kunda boshqa sohalar qatorida ta’lim sohasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta’lim tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda va har tamonlama intellektual salohiyatni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda hayotni axborot vositalarsiz, jumladan, internetsiz ta’savvur qilib bo’lmaydi. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo‘lgan ko‘pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi.

Dars samaradorligini oshirish ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o‘qituvchilar va talabalar jamoasi hamkorligi izchilligini ta’minlash hamda uni aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik,

ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo‘lish va boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligi hamda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifati pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta’limning an’anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq ravishda uzviy qo’llashga bog‘liq. Ayrim hollarda samarali bo‘lgan an’anaviy usullardan voz kechish holatlari sodir bo‘lmoqda. Bu innovatsiyalarni tajribada sinalgan va ijobiy natija berib kelayotgan o‘qitishga qarshi qo‘yishdek sezilmoqda. Shuning uchun ham an’anaviy ta’lim tizimidagi ijobiy tajribalar innovatsiyalarga uyg‘unlashtirilsa ma’qul bo‘lar edi. “Innovatsion texnologiya” tushunchasi ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullarini qamrab oladi.

“Oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar” deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o‘zlashtirish va amalda tatbiq etish jarayonini boshqarish tushuniladi. Oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar eng so‘nggi innovatsiya namunalarini joriy etish uchun moslashrtirilgani o‘qituvchi va talabalarning ijodiy faolligini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

NATIJALAR

Hozirgi kunda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo’llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta’lim maqsadlari o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi

va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi.

Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlashadi. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a’zosi topshiriqni bajarishda o‘z hissasini qo‘shishga harakat qiladi.

Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan’anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchini hamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Innovatsiyalarning samaradorligini aniqlashda o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirish natijalariga qarab fikr yuritish zarur. Hozirgi paytda talabalarning bilim egallashlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Ayniqsa, kompyuterda ishlash, turli tarmoqlardan kerakli ma’lumotlarni izlab topish va o‘zlashtirib olish o‘quvchilarning qiziqarli mashg‘ulotlariga aylanib bormoqda.

Talabalarga kompyuterda ishlash ko‘nikma va malakalarini o‘rgatish bilan birga shu yo‘nalishdagi madaniyatni ham tarkib toptirilsa ma’qul bo‘lar edi. Kompyuter tarmog‘idagi innovatsiyalarni ta’lim-tarbiya olish uchun yo‘naltirish oliy ta’lim pedagoglar jamoasining diqqat markazida turishi zarur. Pedagogik innovatsiyalar ma’lum miqdordagi vazifalarni hal etish uchun xizmat qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Agar talabada mustahkam bilim bilan birga, uni amaliy faolitda qo‘llashning ko‘nikma va malakalari tarkib topsa, tajribada sinab ko‘rilganda samaradorlikka erishsa, mavjud holatlar ijobiy tomonga o‘zgartirilsa, yangi g‘oyalar ustida ish olib borilsa, har qanday muammoning yechimini atroflicha tasavvur qilinsa, global masshtabda fikr yuritilsa innovatsiya kafolatlangan natijani bergan bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning har biri global ko‘lamga ega va zamonaviy didaktikada qisman o‘z aksini topgan. Bunga qaramay umumiy, “mavzudan tashqari” va obyektiv ko‘rinishdagi savollarni ajratsa bo‘ladi. Shunday qilib, yangi axborot texnologiyalari yordamida darsni ma’lum didaktik shartlarni va an’anaviy didaktika va axborot texnologiyalari yordamida to‘ldirib turiladigan ilmiy-metodik holatlarni inobatga olgan holda loyihalash kerak. Ularda eng muhimi muammoli makro va mikro yondashuv yordamida yecha oladigan tizimlilik shartidir. Makrotahlilda loyihalashtirilayotgan darsni umumiy ta’limning bir qismi sifatida ko‘rish kerak. Uning maqsad va vazifalari aynan shundan kelib chiqqan holda aniqlanadi, ya’ni birinchi o‘ringa fanning asosiy vazifalari (asosan maktab dasturidan kelib chiqqan holda) chiqadi. Mikrotahlil esa loyihalashtirilayotgan darsni ta’lim jarayonining ko‘plab komponentalaridan (o‘qituvchi, talaba, ta’lim axborot vositasi) va bu komponentalarni bog‘lovchi xilma-xillikdan tashkil topgan bir butundek qa’bul qilishni talab qiladi (aynan shuning uchun darsni “rejalashtirish” emas, “loyihalashtirish” deymiz).

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki axborotlilik prinsipining dolzarbligi bir nechta omillar bilan tushuntiriladi. Axborotni qidirish, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, o‘zgartirish, taqsimlash va foydalanish prinsiplarini, uni qonunlarini o‘rganadigan fan – informatika nuqtai-nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ixtiyoriy pedogogik texnologiyani axborot texnologiyalariga o‘xshatishimiz mumkin, chunki, unda manbaa (pedagog), va axborot qabul qiluvchi (o‘rganuvchi) bor. Ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘qituvchilarning yaqin vaqtlargacha faqatgina axborotni o‘quvchiga yetkazib berish qobiliyati bilan o‘lchangan baholash tizimini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Bugungi kunda o‘qituvchining ma’lumotliligi, uning faqatgina kommunikatsion qobiliyatlari bilangina emas, balki kompyuterni axborot manbaasi sifatidsa ishlata olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bu nuqtai nazardan o‘qituvchining ta’lim elektron resurslari (TER) sifati va ta’lim jarayonida qo‘llashning samaradorligini baholashga qaratilgan analitik, proyektiv va prognostik qobilliyatlarining shakllanganligi juda muhimdir. TERda taqdim etilgan axborot ilmiyligi va taqdim etishga qulayligi, o‘quvchining o‘rganishga qulayligi va hokazalar umumiy didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Ш., Амиров Д. Ўзбекистонда ахборот коммуникация технологияларининг ривожланиши шархи 2006-2008: за сборник научных трудов Координаторы: - Т.: ИСТП, 2008 й.

2. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot. T. Fan, 2005. 205 b.

4. Аниськин В.Н., Замара Е.В. Организацион нопедагогические условия формирования информационной компетентности сервисменеджеров туризма в системе среднего профессионального образования // Самарский научный вестник. 2013. No 1 (2).

U.B.Mamanazarov., B.M.Shamsiyeva - The emergence of conflicts in young families	240
B.B.Davidov., Sh.M.Sattarov - Sport faoliyati jarayonida talabalarda burch hissini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari	246
F.B.Bayjonov., Sh.O.G‘ofurov - Mustaqil ta’lim tashkil etishda axborot texnalogiyalaridan foydalanishning o‘rni	248
I.X.Abdullayev., Ch.R.Adilova - Sport musobaqalariga qatnashishishda talabalarning axloqiy qaror qabul qilishiga ta’siri	255
N.M.Quchqorova., M.K.Aslonova - Gimnastika mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak pedagoglarda kollaborativ yondashuv asosida estetik madaniyatni shakllantirish texnologiyalari	259
B.B.Davidov., A.B.Xudayberdiyev - Sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	264
O.N.Maxmudov - Boshlang‘ich ta’limda harakatli o‘yinlar orqali nutqni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	270
B.B.Davidov., D.R.Sayidova - Talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirishda sport mashg‘ulotlariga asoslangan pedagogik model	273
M.S.Abduqahhorov - Gandbolda musobaqa davrida markaz o‘yinchilarining hujumdagi texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish	277
M.S.Abduqahhorov - Gandbolda sport turida OKMK jamoasi markaz o‘yinchilarining o‘yinni boshqarish va hujum samaradorligini oshirish	281
N.A.Xudoyberdiyev - Kikbokschilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulot	285
Sh.G.Karimova., Sh.Faxritdinova - Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etishda interfaol metodlar va ularning samaradorligi	288